

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/04.10.2025.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**KOMILOV SHUXRATJON RAXIMJON O'G'LI**

**CHIGITDAN TOLANI AJRATIB OLISH JARAYONIDAGI ISHCHI  
QISMLAR KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TOLA  
SIFATINI SAQLAB QOLISH**

**05.06.02 – To'qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan–2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on technical sciences**

**Komilov Shuxratjon Raximjon o‘g‘li**

Chigitdan tolani ajratib olish jarayonidagi ishchi qismlar  
konstruksiyasini takomillashtirish orqali tola sifatini saqlab qolish..... 3

**Комилов Шухратжон Рахимжон**

Совершенствование конструкции рабочих частей процесса  
отделения волокна от семян с целью сохранения качества  
волокна..... 23

**Komilov Shukhratjon Rakhimjon o‘g‘li**

Improvement of the design of working parts in the fiber separation  
process from seeds in order to preserve fiber quality..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 46

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/04.10.2025.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**KOMILOV SHUXRATJON RAXIMJON O'G'LI**

**CHIGITDAN TOLANI AJRATIB OLIH JARAYONIDAGI ISHCHI  
QISMLAR KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TOLA  
SIFATINI SAQLAB QOLISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan– 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5397 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.namdtu.uz](http://www.namdtu.uz)) (va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muradov Rustam Muradovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ergashev Jamoliddin Samatovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Mamasharipov Abdunabi**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/04.10.2025.T.174.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "06" sentyabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998) 69-234-14-85, (998) 69-234-19-96. e-mail: [info@namdtu.uz](mailto:info@namdtu.uz) , Namangan davlat texnika universiteti 15-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№55-raqam bilan ro'yhatga olingan). (Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi 12-uy, Tel. (998) 69-234-14-85). e-mail: [info@namdtu.uz](mailto:info@namdtu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "25" avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil 01-iyundagi №56-raqamli reestr bayonnomasi).



**Q.M.Xoliqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

**X.T.Bobojanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

**J.Q.Yo'ldashev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda to‘qimachilik mahsulotining asosiy xomashyosi bo‘lgan paxta tolasining tabiiy xossalari saqlab qolish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda «Paxta bo‘yicha Xalqaro konsultativ qo‘mita» (ICAC) ma‘lumotlariga qaraganda so‘nggi yillarda jahon miqyosida paxta maydonlari 31,979 mln gektardan iborat bo‘lib, hosildorlik har bir gektarga 786,65 kg to‘g‘ri keladi, paxta tolasini ishlab chiqarish hajmi 24,581 mln tonnani, uning iste‘moli 24,661 mln tonnani, eksport hajmi 9,572 mln tonnani, import hajmi esa 9,571 mln tonnani tashkil etmoqda<sup>1</sup>. Intensiv tarzda ortib borayotgan aholi soni hisobiga paxta tolasini iste‘moli va unga bo‘lgan talabning istiqbolda ham ortib borishiga olib kelmoqda. Shu bois, tolasini chigitdan ajratish uchun arrali jinish mashinalarini modernizatsiya qilish va bosqichma-bosqich rivojlantirish, zamonaviy paxta tozalash korxonalarini texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish, kompyuter boshqaruvi va chigitdan tola ajratishning optimallashtirilgan tizimlari ishlab chiqish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda paxta tolasiga talabning ortishi o‘z navbatida uning sifati va uni ishlab chiqarish samaradorligini to‘xtovsiz oshirib borishni talab etadi. Paxta tolasining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy hamda texnologik jihatdan ishonchli va sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi yangi texnologiya va ularni modernizatsiya qilishga, jumladan jahon paxta tozalash sohasida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan paxta tozalash korxonalarini mashinalarini takomillashtirish va resurstejamkor texnologiyalarni yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta xomashyosiga ishlov berish jarayonini takomillashtirish, mavjud texnika va texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, tola va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash, jarayonlarning energiya sarfini kamaytirish, uskunalarning ixcham, sodda, zamonaviy hamda avtomatlashgan konstruksiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, mahsulot sifatini boshqara oladigan texnologiyalarini yaratish, shuningdek yaratilgan ilg‘or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etishni jadallashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish kabi yo‘nalishlarda maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda mavjud paxta tozalash korxonalarida joylashgan g‘aramlardagi paxtani ishlab chiqarish jarayoniga yetkazib berishda dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish, shuningdek, energiya sarfini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishga qaratilgan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish, ularni amalda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida, jumladan «Sanoatning drayver» sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, bunda tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksportini oshirish,

---

<sup>1</sup>Cotton: WorldStatistics. <https://www.statista.com>; <http://www.ICAC.org>.

jumladan to'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100% ga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun'iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish...» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda paxta sanoatida paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonlarini, xususan, paxta tolasini chigitdan ajratish uskunalari ishchi organlarini takomillashtirish orqali tola ajratish jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan ushbu ilmiy izlanishlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida» gi 2017-yil 28-noyabrdagi PQ-3408-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 253-sonli «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Paxtaga ishlov berish texnika va texnologiyasini takomillashtirish, arrali jinlar ishchi organlarini hisoblash va loyihalash metodlarini ishlab chiqish, jin ishchi organlari yangi konstruksiyalarini yaratish, texnologik parametrlari va jinlash jarayonini muqobillashtirish bo'yicha bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan P.Pfieger, C.O.Jonkers, A.M.Martinenko, L.Gladinewiez, W.Pampel, H.H.Schommer, N.I.Kolchin, F.Reiner, J.Pfeifer, P.Bernard, G.Veit va boshqalar.

Arrali jinlar konstruksiyasini takomillashtirish va hisoblash usullarini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: B.Levkovich, R.V.Korabelnikov, G.I.Miroshnichenko, D.A.Shepelyovich, V.S. Fedorov, D.A.Kotov, G.I.Boldinskiy, P.N.Tyutin, S.N.Nusratov, M.Tillayev, R.M.Kattaxo'jayev, S.Fazildinov, O.Maqsudov, M.M.Agzamov, B.I.Bekmirzayev, X.K.Davidbaev, R.F.Yunusov, N. Safarov, X.T. Axmedxodjayev, R.Muradov, O.Sh.Sarimsakov R.SH.Sulaymonov, J.S.Ergashev, D.M.Muxammadiyev, S.Z.Yunusov, Sh.A.Azizov, A.A. Umarov, A.U.Sarimsaqov G.R.Jurayeva, M.I.Kenjayeveva. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida paxta tolasini chigitdan ajratish texnika va texnologiyasi rivojlanishida, paxtani jinlash jarayonidan keyingi tola sifatini yaxshilanishida hamda jinlash mashinasi ishchi kamerasidagi zichlikni kamayishida muayyan salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga, jinlash jarayonini mukammal o'rganish, xomashyo valigi zichligini kamaytirishning amaldagidan boshqa usullarini hamda jinlash jarayoni ish unumdorligini oshirishning samarali usullarini ishlab chiqish orqali arrali jin ishchi kamerasini takomillashtirish kabi muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya

tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-OT-2021-148 «Arrali jinning ishchi qismlarini samarali konstruksiyasini yaratish» (2021-2022) loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonida arrali jin mashinasining ishchi kamerasi takomillashtirish orqali jinlash jarayoni unumdorligi va tola sifatini oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

paxtaga dastlabki ishlov berish texnologik jarayonidagi jinlashni nazariy tadqiq qilish orqali xomashyo valigi zichligi va aylanish tezligi orasidagi bog‘lanishni aniqlash;

xomashyo valigi zichligi va tezlatkich-surgichning o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchlarini aniqlash hamda uning ishchi kameradagi harakatini modellashtirish;

arrali jin mashinasi xomashyo valigi tezligini oshiruvchi va rostlovchi mexanizmini ishlab chiqish va uni amaldagi ishchi kamera bilan muvofiqlashtirish;

ishchi kamerada xomashyo valigi tezligini o‘zgartiruvchi tezlatkich-surgichning ratsional qiymatlarini aniqlash;

tezlatkich-surgichning o‘rnatilgan ishchi kamerani ishlab chiqarish sinovlaridan o‘tkazish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida paxta tozalash korxonalaridagi arrali jin mashinasi va uning ishchi organlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ishchi kameraning parametrlari va xomashyo valigining harakat rejimlari, ularni hisoblash metodlari va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida oliy matematika, nazariy mexanika, shuningdek, tutash muhitlar dinamikasi, ehtimollar nazariyasi, eksperimentlarni rejalashtirish va optimallashtirish, o‘lchash, nazorat qilish, tadqiqot natijalarni solishtirish, tahlil qilish va baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

arrali jin mashinasining ishchi kamerasiga tushayotgan paxta hisobiga hosil bo‘ladigan xomashyo valigi zichligini rostlash maqsadida ikki arra orasidagi paxtani arra tishlariga ilashtirib beruvchi, plankalari qiya joylashgan tezlatkich-surgich konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ishchi kameraga o‘rnatilgan aylana shaklidagi tezlatkich-surgich plankalarining o‘qqa nisbatan vertikal va qiya joylashtirish natijasida ikki arra orasidagi behuda aylanayotgan paxta xomashyosini olib chiqishning takomillashtirilgan usuli ishlab chiqilgan;

xomashyo valigi tezligini ta’minlagichdan tushuvchi paxta massasi hisobiga o‘zgarishini inobatga olgan holda tezlatkich-surgich plankalarining maqbul oraliq masofasi hisoblab topilgan;

ko‘p omilli tajribalar asosida xomashyo valigi zichligini kamaytiruvchi va rostlovchi tezlatgich surgichning qiyaligi hamda planka diametrining maqbul qiymatlarini regression matematik omil orqali aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

zichlikning oshib ketishi natijasida tola va chigitning yetarli darajada chiqmayotganligi sababli tolaning sifat darajasini oshirish uchun ishchi kameraga

tezlatgich surgich oʻrnatilgan;

arrali jindagi zichlik kamayishi natijasida ishchi kameradagi arra, val va dvigatelga tushayotgan ortiqcha kuchlanishni kamaytirgan holda ish unumdorligi oshirishga erishilgan;

arrali jin xomashyo valigi zichligi ortishi natijasida xomashyo valigi aylanish tezligining kamayib borishi sababli jinlash unumdorligi pasayishi aniqlangan;

xomashyo valigining zichligini kamaytirish va rostlash uchun ishchi kameraga oʻrnatilgan tezlatkich-surgich orqali aylanish tezligini boshqarish imkoniyati borligini aniqlovchi qonuniyatlar ishlab chiqilgan;

xomashyo valigining zichligini kamaytirish va rostlash uchun ishchi kameraga oʻrnatilgan tezlatkich-surgich oʻrnatish yoʻli bilan chigitdan tolni ajratish samaradorligini oshirish usuli ishlab chiqilgan;

olib borilgan tajribalar natijasida xomashyo valigining zichligini kamaytiruvchi-rostlovchi mexanizmini texnologik parametrlari aniqlangan hamda ular asosida takomillashtirilgan ishchi kameraning tajriba hamda ishlab chiqarish nusxasi tayyorlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot yakunida oʻz aksini topgan umumnazariy xulosalar, nazariy va tajribaviy izlanishlar natijalarining mutanosibligi, tavsiya etilgan takomillashtirilgan arrali jinning ishlab chiqarish sinovlari va mavjud arrali jin koʻrsatkichlariga solishtirish natijalari bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arrali jinning takomillashtirilgan ishchi kamerasi oʻrnatilgan ishchi organlari harakatlarini ifodalovchi matematik modellari, harakat qonunlari va parametrlarining oʻzaro bogʻlanishlari, mashina ishlash rejimlarini tanlab olish usullarining ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida olingan natijalarning amaliyotdagi natijalar bilan mutanosibligi, taklif etilayotgan tezlatkich-surgich yordamida xomashyo valigi zichligini kamaytirish va rostlash, paxtani jinlash samaradorligini oshirishni taʼminlashi hamda ishlab chiqarishga joriy qilish uchun tavsiya etilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ishchi kameradan jinlangan chigitlarni chiqishini tezlashtirish va tola ajratish jarayoni ish unumdorligini oshirish boʻyicha amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida:

Xomashyo valigi zichligini kamaytirish maqsadida tezlatkich-surgich oʻrnatilgan arrali jin ishchi kamerasi «Toshbuloq teks» MCHJ ga qarashli «Paxta tozalash» korxonasi ishlab chiqarishga joriy etilgan («Oʻztoʻqimachilik sanoati» uyushmasining 2025-yil 7-maydagi 03/25-981-son maʼlumotnomasi). Natijada chigitlarning ishchi kameradan chiqib ketishi birlik vaqtda 32 % ga ortishi evaziga jin ish unumdorligini 10-12 % ga oshirishga erishilgan. Ish unumdorligi (2 ta jin uchun) toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdorini 0,5% ga kamayishida oddiy va oʻrta sinf orasidagi farq 1,0% boʻlganda, joriy qilinayotgan variantda 3,4% tola oʻz sinfini koʻtarish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari boʻyicha 8 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maʼruza qilingan va muhokamadan oʻtgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy ishlarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 3 ta Respublika va 3 ta xorijiy ilmiy nashrlarda nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 3 ta patenti olingan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha analitik tahlil**" deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili keltirilgan. Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu-barcha texnologik jarayonlardan o'tayotgan paxta xomashyosini tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishdan iborat. Paxta tozalash korxonalariga qo'yilgan talablarni hal etish paxta xomashyosiga dastlabki ishlov berish, texnologik jarayonlarda chigitli paxta va tola mahsulotlarining sifatini hamda tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish va jinlash qurilmalarini takomillashtirishdan iborat.

Paxtani qayta ishlash korxonalarida qo'llaniladigan jinlash qurilmalaridagi texnologik jarayonlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari sohaning yetuk olimlari tomonidan o'rganilgan, biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi masalalar yetarli darajada o'z yechimini topmagan, jumladan paxta bo'lakchalari paxta tozalash mashinalarining ishchi sirtlariga urilish burchagini chigit shikastlanishiga ta'sir darajasini aniqlash, paxtani pnevmotransport tizimining ishchi yuzalari bilan o'zaro ta'sir mexanikasini nazariy va tajribaviy tadqiq qilish hamda quvur o'tkazgichning burchaklari shaklini tanlash va uning tashiladigan material sifat ta'sirini nazariy-tajribaviy taxlil qilingan.

Arrali jinining ish unumdorligini o'sishi albatta xomashyo valigi zichligini ortishi bilan birga sodir bo'lishi isbotlangan. Ammo, zichlikning ortishi bilan unumdorlik ortishi ma'lum chegaragacha bo'lib, keyin unumdorlik pasaya boshlaydi. Bu holat butun kamera bo'ylab ishqalanish kuchlarining ta'sirida xomashyo valigi aylanish tezligi kamayib borishi bilan bog'liq bo'lib, zichlik  $550\div 600 \text{ kg/m}^3$  bo'lganida jarayon butunlay to'xtab qolishi isbot qilingan. Bunday holat paxtani jinlash jarayoniga salbiy ta'sir qilib, ish unumdorligi va tola sifatining pasayib ketishiga sababchi bo'ladi. Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun jinlash jarayonini yanada mukammal o'rganish, xomashyo valigi zichligini kamaytirish va rostlashning amaldagidan boshqa usullarini ishlab chiqish talab etiladi. Sohada hozirgi kungacha olib borilgan izlanishlarda jinlash jarayonida ish unumdorligini oshirishning samarali

usullarini ishlab chiqish orqali arrali jin ishchi kamerasini takomillashtirish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning “**Arrali jinning ishchi kamerasidagi jarayonining nazariy tadqiqoti**” deb nomlangan ikkinchi bobida tolasidan to'liq ajralgan chigitlarni xomashyo valigi o'rtasiga qo'shib to'planib qolishini oldini olish maqsadida ishchi kameraning ichiga aylan shaklidagi tezlatkich-surgich o'rnatilgan bo'lib ishchi kameradagi paxta bo'lakchasining zichligini kamaytirishga xizmat qiladi bundan tashqari ikkita arra orasiga kirib qolgan paxtani chiqarishga va paxta bo'lakchasining shu tezlatkich-surgich yordamida ajratilgan chigitlarning chiqib ketish imkonini beradi. Bu esa ishchi kameradagi paxta bo'lakchasidan chigitlarni bir tekisda ajratilishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni nazariy tahlil natijasida paxta bo'lakchasining zichligini bir xilligini ta'minlash masalasi ko'rilgan (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Takomillashgan ishchi kameradagi paxta oqimining harakat sxemasi**  
1.paxta bo'lakchalari, 2.tezlatkich surgich

Paxta bo'lakchalarini tezlatkich ta'sirida ishchi kamera devoriga ta'sirini natijasidagi elastiklik kuchi

$$F_{el} = k \cdot \Delta l \quad (1)$$

Ishchi kameradagi xomashyo valigi sirtidagi paxta qatlamini harakat tahlili

$$N = F_{m.k} - mg \cos \alpha_1 - F_{el} \quad (2)$$


(2) tenglikka paxta oqimining markazdan qochma kuchi va elastiklik kuchlarini qiymatlarini qo'yib ishchi kamera devoriga beradigan bosim kuchini aniqlaymiz (2-rasmga qarang).

Bu yerda markazdan qochma kuch  $F_{m.k} = \frac{mv^2}{R}$  va tezlatkich ta'siridagi elastiklik kuchi  $F_{el} = k \cdot \Delta l$  ga teng. plankaning qiyalik burchagi

$$N = \frac{mv^2}{R} - mg \cos \alpha_1 - k \cdot \Delta l$$

bu yerda  $k$  – paxta bo'lakchasini ishchi kamera devoriga beriladigan bikirligi;  
 $\Delta l$  – siqilish masofasi;


Paxta oqimini ishchi kamera devoriga beradigan bosim kuchini oʻrnatilgan birligiga va ishchi kameradagi xomashyo tezlatkichning tezliklarini turli xil qiymatlaridagi grafiklarini Maple dasturidan foydalanib tahlil qilamiz.




2-rasm. Paxta oqimiga tezlatkich-surgich taʼsiridagi sxemasi

$$\Delta l = \frac{\rho \cdot V \cdot v^2}{R \cdot k} - \frac{\rho \cdot V \cdot g \cdot \cos \alpha}{k} - \frac{N}{k} \quad (3)$$


(3) tenglamadan paxta oqimining ishchi kamerada harakatini paxta oqim zichligini siqilishiga bogʻliqlik trayektoriyalarini 3-va4-rasmlarda Maple dasturidan foydalanib tahlil qilingan.



3-rasm. Paxta oqimining ishchi kameradagi normal bosim kuchini oʻzgarishi tezlatkich-surgich tezligini turli xil  $V_1=1.5\text{m/s}$   $V_2=2\text{ m/s}$   $V_3=2,5\text{ m/s}$  qiymatlarida qamrash burchagiga bogʻliqlik grafigi



4-rasm. Paxta oqimining ishchi kameradagi normal bosim kuchini tezlatkich-surgichdagi plankaning qiyalik burchagini turli xil qiymatlarida qamrash burchagiga bogʻliqlik grafigi



5-rasm. Paxta oqimining ishchi kameradagi normal bosim kuchini paxta

Ishchi kameradagi paxta oqimining harakatini ifodalashda dinamikaning asosiy qonunidan foydalanib differensial tenglamasini tuzamiz.(5-rasmga qarang)

**oqim zichligini turli xil  $\rho_1 = 300\text{kg}/\text{m}^3$   $\rho_2 = 375\text{kg}/\text{m}^3$ ,  $\rho_3 = 450\text{kg}/\text{m}^3$  qiymatlarida qamrash burchagiga bog‘liqlik grafigi**

$$ma = \bar{P} + \bar{R} + \bar{F}_{uu} \quad (4)$$

Ushbu xomashyo valigi sirtidagi paxta qatlamiga ta’sir qiluvchi  $\tau$  va  $\eta$  uchlariga nisbatan fraksiyalarini quyidagicha aniqlaymiz.


$$ma_\tau = P_\tau + R_\tau + F_{uu\tau}; \quad ma_\eta = P_\eta + R_\eta + F_{uu\eta} \quad (5)$$

$F_{\eta n} = P \cos \alpha - m\rho \dot{\alpha}^2$  elastik kuchni hisobga olgan holda paxta bo‘lakchasini chigitdan ajratish jarayoniga 130 tishda elastiklik va qovushqoqlik koeffitsiyentlariga bog‘liqlik ifodasini aniqlaymiz.

$$k \cdot \Delta l = mg \cos \alpha - m \cdot \frac{v^2}{r}$$

$$v = \sqrt{\frac{mgr \cos \alpha - k \cdot \Delta l \cdot r}{m}} \quad (6)$$

(6) tenglikdan paxta oqimining ishchi kameradagi harakatini siqilishdagi harakatini bikrlilik koeffitsiyentlarini o‘zgarishi bo‘yicha grafiklar keltirilgan.(6-rasmga qarang)



**6-rasm. Paxta oqimining ishchi kameradagi tezligining oqim zichligini**

**turli xil  $\rho_1 = 300\text{kg}/\text{m}^3$   $\rho_2 = 375\text{kg}/\text{m}^3$   $\rho_3 = 450\text{kg}/\text{m}^3$  qiymatlarida siqilish**

**masofasiga bog‘liqlik grafigi**

Ishchi kamerada paxta oqimiga ta’sir qiluvchi tashqi kuchlarning yo‘nalishlari keltirilgan  $P = m \cdot g$  - paxta bo‘lakchasining og‘irlik kuchi,  $F_{\eta n} = k \cdot \Delta l$  - jin xomashyo valigini fartuk ichki yuzasiga ta’sir qiladigan kuchlar yig‘indisi.

$F_{uu} = f \left( \frac{m \cdot v_1^2}{R} + m \cdot g \right)$  paxta bo‘lakchasini ishchi kamera sirtidagi xosil bo‘ladigan ishqalanish kuchi.

bu yerda  $\frac{m \cdot v_1^2}{R}$  - markazdan qochma kuch; f-ishqalanish koeffitsiyenti.

Ishchi kameradagi  $\vec{AB} = \vec{S}$  yoy bo‘ylab  $\vec{S} = R \cdot \alpha$  harakatlanadigan paxta

bo‘lakchasini tashqi kuchlar ta’siridagi holatini tahlil qilamiz. Paxta bo‘lakchasiga ta’siri natijasidagi harakat differensial tenglamasi quyidagicha ifodalanadi.

$$m \cdot R \cdot \ddot{\varphi}_1 = \bar{F}_{\text{эл}} + P - \bar{F}_{\text{uu}} \quad (7)$$

1 tenglamaga yuqoridagi ishchi kamerada paxta oqimiga ta'sir kiluvchi tashqi kuchlardan foydalanib tenglamani hosil qilamiz

$$m \cdot R \cdot \ddot{\alpha} = k \cdot \Delta l + m \cdot g - \frac{f \cdot m \cdot v_1^2}{R} \quad (8)$$

2 tenglamada  $\ddot{S} = R \cdot \ddot{\alpha}$  va  $v = \omega \cdot R = \alpha \cdot R$  ekanligidan

$$m \cdot R \cdot \ddot{\alpha} = \mu \cdot R \cdot \dot{\alpha} + m \cdot g - \frac{f \cdot m \cdot v_1^2}{R} \quad (9)$$

Tenglama quyidagi boshlaigich  $\alpha(0) = 0$ ,  $(\dot{\alpha}) = 0$  shartlarda integrallanadi. Ishchi kamera sirtidagi aylana bo'lagi  $\dot{\alpha} \cdot R$  bo'lsa, (3) tenglama  $t = t_0$  momentgacha integrallanadi, bu yerda  $\alpha(t_0) = \alpha$  shartdan aniqlanadi.

$$\ddot{\alpha} - \frac{\mu}{m} \cdot \dot{\alpha} = \frac{g}{R} - \frac{f \cdot v_1^2}{R^2} \quad (10)$$

(10) tenglamaga belgilashlar kiritib differensial tenglamani hosil qilamiz

$$n = -\frac{\mu}{m}, \quad \ddot{\alpha} + n \cdot \dot{\alpha} = 0 \quad (11)$$

(11) bir jinsli tenglamani yechimini quyidagicha aniqlaymiz


$$\alpha_1 = e^{\lambda \cdot t}$$

$$\lambda^2 + n \cdot \lambda = 0 \quad (12)$$


bunda  $\lambda_1 = 0$   $\lambda_2 = -n$  bo'ladi (5) tenglamani yechimi quyidagicha bo'ladi

$$\alpha_1 = C_1 + C_2 \cdot e^{-n \cdot t}$$

Burchaklarini uzgarish vaqti bo'yicha paxta bo'lakchalarini bir paytda ishchi kameradagi tiqilishini oldini olish bilan tugallanadi. Paxta bo'lakchalarini harakat qonuniyatlari ma'lum bo'lsa ulardan chigitni ajratib olish samaradorligini aniqlash mumkin. (7-va 8-rasmlarga qarang)




**7-rasm. Paxta oqimining ishchi kamerada uzatishda tezlatkich-surgich tezligini turli xil  $V_1=1.5\text{m/s}$ ,  $V_2=2\text{ m/s}$ ,  $V_3=2.5\text{ m/s}$  qiymatlarida qamrash burchagiga bog'liqlik grafigi**



**8-rasm. Paxta oqimining ishchi kamerada tezlatkich-surgichdagi plakaning qiyalik burchagini turli  $\alpha_1 = 65^\circ$ ;  $\alpha_2 = 75^\circ$ ;  $\alpha_3 = 85^\circ$  qiymatlarida qamrash burchagiga bog'liqlik grafigi**

Dissertatsiyaning “**Takomillashtirilgan ishchi kamerani tajribaviy konstruksiyasini ishlab chiqish**” deb nomlangan uchinchi bobda xomashyo valigini bosim ta'sirida ishchi kamera fartugida yon tomonlarida ishqalanish hosil bo'ladi.



**9-rasm. Arrali jin mashinasi ishchi kamerasi:** 1-tezlatkich-surgich; 2-arrali silindr; 3 kolosnikli panjara.

Korxonaning ishlab chiqarish bo'limidagi mavjud bo'lgan arrali jinlarda zichlikning oshib ketishi natijasida tola va chigitning davlat standartlari talablari darajasida chiqmayotganligi sababli tolaning sifat darajasini oshirish uchun ishchi kameraga tezlatkich-surgich o'rnatildi. (9-rasmga qarang). Arrali jindagi zichlik kamayishi natijasida ishchi kameradagi arra, val va dvigatelga tushayotgan ortiqcha kuchlanishni kamaytirgan holda ish unumdorligi oshirishga erishilgan.

Arrali jin mashinasida paxta xomashyosini jinlash jarayonida ishchi kamerada ikkita arra orasida qolib ketayotgan paxtani chiqarish va toladan ajragan chigitlarni o'z vaqtida chiqarib yuborish orqali zichlikni kamaytirish masalasini hal qilish mumkin. Toladan ajragan chigitlarning jin mashinasi ishchi kameradan chiqarib yuborish jarayonini o'rganish maqsadida 30ta arra o'rnatilgan tajriba jin mashinasida o'tkazildi. Tezlatkich-surgich valining ishchi chizmasi 10-rasmga keltirilgan.




**10-rasm. Tezlatkich-surgich valining ishchi chizmasi**

Arra tishlariga ilashgan tola kolosniklar orasidan o'tib chigitdan ajraladi, kolosniklar orasiga sig'magan chigitlar o'z og'irligi ta'sirida pastga tushib ketadi. Arrali silindr tishlariga ilashgan tola havo yordamida ajratib olinadi.

Arrali jin ishchi kamerasi zichligini kamaytirish maqsadida aylana shaklidagi tezlatkich-surgichlar o'rnatib tajribalar o'tkazildi. Ushbu qurilmada tajribalar 3 xil variantda o'tkazildi.

Arrali jin ishchi kamerasi xomashyo valigi zichligini kamaytirish maqsadida tezlatkich-surgich o'rnatilgan val Po'lat 45 materialidan tayyorlanib, unga termik va mexanik ishlov berilgan (11-rasmga qarang).

O'tkazilgan tajribalar natijasida tezlatkich-surgichning xomashyo valigi aylanish tezligiga, ishchi kameradan toladan ajralgan chigitlarning chiqishiga, xomashyo valigi zichligiga ko'rsatgan ta'siri o'rganildi.



**11-rasm. Aylana shakldagi tezlakich-surgich**

Dastlabki tajribalarda uch xil variantda xomashyo valigi aylanishi tezligi kerakli darajada o'zgarishini aniqlandi.


Ishchi kameraga o'rnatilgan tezlakich-surgichni aylanma harakatni elektrdvigatel orqali uzatmalar yordamida amalga oshirildi hamda tezlakich-surgichning va xomashyo valigining aylanishi tezliklari taxometr yordamida aniqlandi.

Arrali jin mashinasi ishchi kamerasiga o'rnatilgan tezlakichlar "Toshbuloq teks" MCHJ ni mexanika sexida SCH 18-36 markadagi cho'yan materialidan quyib olish usulidan foydalanib quyib olindi. Quyib olingan aylana shaklidagi tezlakich-surgichlar tayyorlanmalariga mexanik hamda termik ishlov berildi.

Arrali jin ishchi kamerasiga o'rnatilgan tezlakich-surgichning aylanish tezligi 110 ayl/min va aylananing diametri turlicha bo'lganda arrali jin mashinasining ish unumdorligi va mahsulot sifati har xil bo'lishi aniqlandi.

O'tkazilgan tajribalar asosida aylana shaklidagi tezlakich-surgichning diametri 100 mm bo'lganda arrali jin ishchi kamerasida paxta xomashyosi bilan ta'sirlashuvi hamda massasi qolgan variantdagilarga nisbatan kamroqligi bilan xarakterlandi.


Solid Works kompyuter dasturining Simulation paketidan foydalangan holda hisob ishlarini olib borildi. Hisoblarning aniqligini ta'minlash uchun har bir detal qismi alohida chizib, material turi kiritildi va yig'ma holatidagi 3D chizmasi hosil qilindi (12-rasm).




**12-rasm. Taklif qilingan tezlakich-surgichni solidworks dasturida yaratilgan chizmasi:**

1-aylana shaklidagi tezlakich surgich, 2-val, 3-qiya aylanali tezlakich surgich.

Grafiklardan mustahkamlik zaxirasi ko'effitsiyentining eng kichik qiymati 5.1 ga teng ekanligi va ko'rsatkich valning mufta o'rnaydigan qismidaligini ko'rish mumkin. Vallar uchun bu ko'effitsiyent  $[n] \geq 1,5 \div 2,5$  bo'lishi yetarli. Demak, tezlakich-surgich vali qo'yilgan talabga javob berdi.



**13-rasm. Tezlatkich-surgichning kuchlanish epyurasi**



**14-rasm. Tezlatkich-surgichning ko'chish epyurasi**

Tezlatkich-surgichning plankalari hamda valining mustahkamligi va bikrligi kerakli darajada bo'lmasa, toladan chigitni ajratish jarayonini yomonlashishiga, tola va chigit sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot davomida aylana shaklidagi plankadan iborat bo'lgan tezlatkich-surgichni arrali jin ishchi kamerasiga o'rnatish taklif etilgan bo'lib, unga ta'sir etayotgan tashqi yuklanishlarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda tezlatkich-surgich vali va halqalariga tushayotgan kuch hisoblari bajarildi (13- va 14-rasmlarga qarang).

Yangi tezlatkich-surgich ning optimal konstruktiv va texnologik parametrlarini tanlash tadqiqot ishining mas'uliyatli bosqichi bo'lib hisoblanadi, chunki uni ekspluatatsiyaga qulayligi, arrali jin mashinasi ishonchliligi va tannarxi huddi shunga bog'liqdir. Boshqa tarafdin, tezlatkich-surgich ishiga ko'plab omillar ta'sir etib, optimal ko'rsatkichlarini aniqlash ko'p sonli eksperimentlarni olib borilishini taqozo qildi. Eksperimentlarni rejalashda matematik usullarning qo'llanilishi, tadqiqotlarni an'anaviy hisoblash usullaridan farqli o'laroq optimallashtirish parametrlariga birgalikda ta'sir etuvchilarni xarakterlovchi bir nechta omillarni o'zaro ta'sirini alohida-alohida aniqlashga imkon yaratdi. Buning natijasida, nisbatan ko'p bo'lmagan sinovlar sonida tadqiq etilayotgan ob'yektning matematik modelini olishga ega bo'lindi, ushbu model bir vaqtning o'zida optimal yechimlarni qabul qilish uchun xizmat qildi. Optimallashtirish tajribalarini o'tkazish va uning natijalarini qayta ishlashda quyidagi amallarni bajarish talab etildi:

1. Optimallashtirishda asosiy masala tezlatkich-surgich ishiga ta'sir qiluvchi ahamiyatli omillarni aniqlab olishdir, bunda xom ashyo zichligini kamaytirish va tolalarni chigitlardan ajratish jarayonini tezlatish, tola chiqishini ko'paytirishni ko'zda tutgan holda optimallashtirish parametrlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

$$Y_R = b_0 + \sum_{i=1}^M b_i x_i + \sum_{\substack{i=j=1 \\ j \neq 1}}^M b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^M b_{ii} x_i^2$$

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'sir etuvchi omillar:

$Y_1$ - Arrali jin mashinasining ish unumdorligi (kg arra/soat)

$Y_2$ - Chigitning mexanik shikastlanishi (%).

2. Tezlatkich-surgich tuzilishiga oid bo'lgan nazariy-tadqiqotlarning natijalaridan kelib chiqqan holda hamda dastlabki bir omilli eksperimentda optimallashtirish parametrlariga ta'sir etuvchi omillar sifatida 1-jadvaldagi qiymatlar tanlab olindi.

TOT natijalariga ko'ra, o'rganilayotgan jarayon yuqoriroq darajali tenglama bilan ifodalanishi aniqlandi. Shuning uchun ikkinchi darajali regression matematik modelni olish maqsadida, boshqa usullarga nisbatan birmuncha soddaroq va qulay bo'lgan, hamda to'qimachilik sanoati texnologik jarayonlari tadqiqotlarida keng qo'llanilayotgan markaziy nokompozitsion tajriba (MNKT) tanlandi va amalga oshirildi.

1-jadval

Bir omilli eksperimentda optimallashtirish parametrlariga ta'sir etuvchi omillar

Omillar nomi va belgilanishi		O'zgartirish sathlari			O'zgartirish oralig'i
		-1	0	1	
Tezlatkich-surgichning og'ish burchagi	1	65	75	85	10
Tezlatkich-surgichlar diametri, mm	2	90	100	110	10
Xomashyo valigidagi tezlatkich-surgichning aylanish tezligi, (ayl/min)	3	105	110	115	5

Tajribalar natijalardan kelib chiqib, ikkinchi darajali regression ko'p omilli matematik modelni hisoblaymiz. Ushbu tajriba natijasida quyidagi umumiy ko'rinishdagi regression modelni olishimiz mumkin:

$$Y_R = b_0 + \sum_{i=1}^M b_i x_i + \sum_{\substack{i=j=1 \\ j \neq 1}}^M b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^M b_{ii} x_i^2$$


Ma'lumki, agar mezonning hisobiy qiymati jadval qiymatidan kichik bo'lsa, o'sha koeffitsient ahamiyatli emas va uni tenglamadan chiqaramiz. Tadqiqotlarda  $b_{11}$  koeffitsientlarni tadqiq etilayotgan parametrlar uchun ahamiyatsiz ekanligi ma'lum bo'ldi:

Ahamiyatli koeffitsientlari bilan tenglamani qayta yozamiz:


Aniqlangan regressiya koeffitsientlarini hisobga olgan holda tenglamani yozamiz:

$$Y_1 = 9.53 + 0.61 * x_1 + 0.33 * x_2 + 0.34 * x_3 + (-0.25) * x_{12} + 0.31 * x_{13} + 0.11 * x_{23} + (-0.26) * x_{11} + (-0.11) * x_{22} + (-0.66) * x_{33}$$


Yuqorida keltirib olingan regression matematik modelning adekvatli yoki adekvat emasligini tekshirish maqsadida Fisher mezonining hisobiy qiymatidan foydalanib aniqlaymiz. (15-16-va 17-rasmlarga qarang)



**15-rasm. Arrali jin mashinasining ish unumdorligiga tezlatkich-surgichning og'ish burchagi ta'siri grafigi**



**16-rasm. Arrali jin mashinasining ish unumdorligiga tezlatkich-surgichning diametri o'zgarishi ta'siri grafigi**



**17-rasm. Arrali jin mashinasining ish unumdorligiga xomashyovaligidagi tezlatkich-surgichning aylanish tezligi grafigi**

Qurilmaning tebranishi ( $Y_2$ ) ni optimallashtirish bo'yicha hisoblash:

Regressiya koeffitsientlarini aniqlaymiz:

$$Y_R = b_0 + \sum_{i=1}^M b_i x_i + \sum_{\substack{i=j=1 \\ j \neq 1}}^M b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^M b_{ii} x_i^2$$


Ma'lumki agar mezonning hisobiy qiymati jadval qiymatidan kichik bo'lsa, o'sha koeffitsient ahamiyatli emas va uni tenglamadan chiqaramiz. Tadqiqotlarda  $b_{12}$ ,  $b_{23}$  koeffitsientlarni tadqiq etilayotgan parametrlar uchun ahamiyatsiz ekanligi ma'lum bo'ldi. Ahamiyatli koeffitsientlari bilan tenglamani qayta yozamiz:

$$Y_2 = 3.47 + 0.18 * X_1 + 0.14 * X_2 + 0.36 * X_3 + (0.02) * X_{12} + 0.08 * X_{13} + 0.05 * X_{23} + 0.1 * X_{11} + 0.27 * X_{22} + 0.17 * X_{33}$$


Yuqorida keltirib olingan regression matematik modelning adekvatli yoki adekvat emasligini tekshirish maqsadida Fisher mezonining hisobiy qiymatidan foydalanib aniqlaymiz. (18-19-va 20-rasmlarga qarang)

$$Y_R = 21,67 + 6,13 * x_1 + (-4,38) * x_2 + 2,5 * x_{11} + 8,07 * x_{13} + 7,57 * x_{22} + 4,69 * x_{33}$$


$$Y_{R1} = 21,67 + 6,13 + (-4,38) + 8,07 + 7,57 = 36$$



**18-rasm. Chigitning mexanik shikastlanishiga tezlatkich-surgichning og'ish burchagi ta'siri grafigi**



19-rasm. Chigitning mexanik shikastlanishiga tezlatkich-surgichning diametri ta'siri grafigi



20-rasm. Chigitning mexanik shikastlanishiga xomashyovaligidagi tezlatkich-surgichning aylanish tezligi ta'siri


Dissertatsiyaning «**Takomillashgan ishchi kameranining ishlab chiqarishda sinash va uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash**» deb nomlangan to'rtinchi bobida taklif etilayotgan tolalarni chigitlardan ajratish jarayonini tezlatish, xomashyo valigi zichligini kamaytirish va tola chiqishini ko'paytirish maqsadida arrali jin mashinasiga tezlatkich-surgich o'rnatish orqali o'tkazilgan tajriba shuni ko'rsatdiki, bu qurilmadagi unumdorlikka va tola sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi.



21-rasm. Arrali jin mashinasiga o'rnatilgan tezlatkich-surgich

Tajriba natijalari tolani chigitdan ajratish mashinasi ishchi kamerasiga oʻrnatilgan uchburchakli toʻzitgich-tezlatkichning ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy taʼsirini va yakuniy mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyatini bergani kuzatildi.(21-rasmga qarang)

Arrali jin mashinasining ishchi kamerasiga maxsus toʻzitgichlar oʻrnatilib, arrali jin mashinasini samaradorligini aniqlash maqsadida “Toshbuloq Teks” MChJ ga qarashli paxta tozalash korxonasi ishlab chiqarish sharoitida Andijon-35, I nav, 2 sinfdagi tajribalar oʻtkazildi.(22-rasmga qarang)



**22-rasm.Arrali jinning tajriba nusxasi:** 1-bunker; 2-taʼminlash valiklari; 3-qoziqli baraban; 4- jin ishchi kamerasi; 5- ishchi kameraga oʻrnatilgan tezlatkich-surgich; 6-arrali silindr vali, 7- kolosnikli panjara.

Ilmiy-tadqiqot ishi boʻyicha jin mashinalari ishchi kamerasi uchun xom ashyo valigini tezlatgich-surgich qurilmasi har ikki arra orasida befoyda aylanayotgan xom ashyoni gorizontall oʻq boʻylab siljitish imkonini beradi. Bunda jin mashinasiga tushayotgan paxta xom ashyosi xom ashyo valigini hosil qilgandan soʻng arra tishlariga paxta tolasini oʻz vaqtida yetkazib berishni taʼminlaydi. Shuningdek, tezlatgich-surgich qurilmasi yordamida ishchi kamerada hosil boʻladigan xom ashyo valigining zichligini meʼyorida saqlashga ham xizmat qiladi. Buning natijasida chigitlarni arra tishlari taʼsirida mexanik shikastlanishining oldi olinib, tolada hosil boʻladigan nuqson va iflos aralashmalar miqdori kamaytiriladi. Oʻtkazilgan tajriba natijalaridan kelib chiqib ishchi kameraga tezlatgich-surgich qurilmasini oʻrnatish orqali chigit shikastlanishining oldi olinib toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdorini kamaytirishga erishildi. Biz tomonimizdan qabul qilingan toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdorini 0,5 % ga kamayishida va oddiy va oʻrta sinf orasidagi farq 1,0 % boʻlganda, joriy qilinayotgan variantda 3,4 % tola oʻz sinfini koʻtaradi. Tahlil qilinayotgan paxta tozalash korxonasi yiliga 5610 tonna tola ishlab chiqarishini xisobga olib taklif qilanayotgan qurilmani ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilish

natijasida ishlab chiqarilayotgan 5610 tonna tolaning 3,4 % foizi 190,74 tonna tola tashkil qiladi.

Ushbu aniqlangan iqtisodiy samaradorlikdan qurilmani tayyorlash va joriy qilishga sarf etilgan xarajatlarni ajratib olgan holda haqiqiy iqtisodiy samaradorlikni aniqlaymiz:

$C = C_{um} - C_{1,2} = 123788,268 - 10\,940,6 = 112\,847,668$  ming soʻmni yoki chiqarilayotgan 1 tonna tolaga 20,115 ming soʻmni tashkil qiladi. (2025 yil uchun hisoblangan).

## UMUMIY XULOSALAR

Arrali jinda tola ajratish jarayoni ish unumdorligini oshirish maqsadida ishchi kamerasi takomillashtirish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. Chet el va respublika ilmiy tadqiqotchilari tomonidan arrali jin mashinalari va uning asosiy elementlarini takomillashtirish maqsadida oʻtkazilgan tadqiqotlarning tahlili mavjud arrali jin mashinalarining bir qator kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish boʻyicha tadqiqot yoʻnalishlarini belgilab olish imkonini berishchi kamerada xomashyo valigini arrali silindr bilan oʻzaro taʼsirlashuv jarayonini nazariy yoʻl bilan oʻrganish natijasida olingan differensial tenglama xomashyo valigining aylanish oʻqiga qoʻyilgan qoʻshimcha burovchi moment taʼsirida xomashyo valigining aylanish tezligini boshqarish imkoniyati mavjudligini koʻrsatdi.

2. Xomashyo valigi urinma tezligining koʻndalang kesim radiusining jin ishchi kamerasi kesimi boʻyicha taqsimlanishini oʻrganish natijalari xomashyo valigida hosil boʻluvchi normal bosim kuchlarining oʻzgarish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

3. Arrali jin mashinasining 30 arrali tajriba qurilmasi ishchi kamerasi aylana shaklidagi tezlatkich surgich oʻrnatilib sinovdan oʻtkazilganda olingan natijalar yangi takomillashtirilgan arrali jin ishchi kamerasi ishlovchanligini aniqlash imkoniyatini yaratdi.

4. Jin mashinasining ishchi kamerasi maxsus tezlatkich-surgich oʻrnatilib, jin mashinasini samaradorligini aniqlash maqsadida "Toshbuloq teks" MCHJga qarashli paxta tozalash korxonasi paxta xomashyosining Andijon 35 (1 nav 2 sinf) da oʻtkazildi. Natijada jin ish unumdorligi (2 ta jin uchun) toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdorini 0,5 % ga kamayishida va oddiy va oʻrta sinf orasidagi farq 1,0 % boʻlganda, joriy qilinayotgan variantda 3,4 % tola oʻz sinfini koʻtardi.

5. Tezlatkich-surgich valini mustahkamlik zaxirasi koeffitsiyentining eng kichik qiymati 5.1 ga teng ekanligi va koʻrsatkich valning mufta oʻrnatilgan qismidalgini koʻrishimiz mumkin.

6. Ilmiy-tadqiqot ishi boʻyicha jin mashinalari ishchi kamerasi uchun xom ashyo valigini tezlatkich-surgich qurilmasi har ikki arra orasida befoyda aylanayotgan xom ashyoni gorizontol oʻq boʻylab siljitish imkonini beradi. Bunda jin mashinasiga tushayotgan paxta xom ashyosi xom ashyo valigini hosil qilgandan soʻng arra tishlariga paxta tolasini oʻz vaqtida yetkazib berishni taʼminlaydi.

7. Shuningdek, tezlatkich-surgich qurilmasi yordamida ishchi kamerada hosil boʻladigan xom ashyo valigining zichligini meʼyorida saqlashga ham xizmat qiladi.

Buning natijasida chigitlarni arra tishlari ta'sirida mexanik shikastlanishining oldi olinib, tolada hosil bo'ladigan nuqson va iflos aralashmalar miqdori kamaytiriladi.

8. Arrali jindagi zichlik kamayishi natijasida ishchi kameradagi arra, val va dvigatelga tushayotgan ortiqcha kuchlanishni kamaytirgan holda ish unumdorligi oshirishga erishilgan

9. Korxonaga joriy qilishda yillik iqtisodiy samaradorlik 112 847,668 ming so'mni yoki chiqarilayotgan 1 tonna tolaga 20,115 ming so'mni tashkil qiladi. (2025 yil uchun hisoblangan)

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/04.10.2025.Т.174.01 ПРИ НАМАНГАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**КОМИЛОВ ШУХРАТЖОН РАХИМЖОН УГЛИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ РАБОЧИХ ЧАСТЕЙ  
ПРОЦЕССА ОТДЕЛЕНИЯ ВОЛОКНА ОТ СЕМЯН С ЦЕЛЬЮ  
СОХРАНЕНИЯ КАЧЕСТВА ВОЛОКНА**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная  
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Наманган 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/T5397.**

Диссертация выполнена в Наманганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета при Наманганском государственном техническом университете ([www.namdtu.uz](http://www.namdtu.uz)) и на информационном образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)) размещены.

**Научный руководитель:**

**Мурадов Рустам Мурадович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Эргашев Жамолиддин Саматович**  
доктор технических наук, профессор

**Мамашарипов Абдунаби**  
доктор философии по техническим наукам,  
доцент

**Ведущая организация:**

**Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности**

Защита диссертации состоится “06” сентября 2025 года в 14:00 часов на заседании при научном совете DSc.03/04.10.2025.T.”174.01 при Наманганском государственном техническом университете (Адрес: Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел. (998) 69-234-14-85, (998) 69-234-19-96. e-mail: [info@namdtu.uz](mailto:info@namdtu.uz), Наманганский государственный технический университет, здание 15, 1 этаж, зал совещаний).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета (зарегистрирован под номером №55). (Адрес: г.Наманган, улица И.Каримова, дом 12, тел. (998) 69-234-14-85). e-mail: [info@namdtu.uz](mailto:info@namdtu.uz)

Автореферат диссертации разослан “25” августа 2025 года.  
(реестр протокола рассылки №56 от “01” июня 2025 года).



**К.М.Холиков**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней доктор технических наук, профессор

**Х.Т.Бобожанов**

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

**Ж.К.Юлдашев**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней доктор технических наук, доцент

## **Введение (аннотация диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире вопросам сохранения природных свойств хлопкового волокна — основного сырья для текстильной продукции — уделяется особое внимание. Согласно данным «Международного консультативного комитета по хлопку» (ICAC), в последние годы мировая площадь хлопковых посевов составляет 31,979 млн гектаров, урожайность — 786,65 кг с гектара, объём производства хлопкового волокна — 24,581 млн тонн, потребление — 24,661 млн тонн, экспорт — 9,572 млн тонн, а импорт — 9,571 млн тонн<sup>2</sup>. В связи с интенсивным ростом численности населения в будущем также ожидается увеличение потребления хлопкового волокна и спроса на него, что придаёт особую значимость вопросам его эффективного использования. В настоящее время рост спроса на хлопковое волокно требует неуклонного повышения его качества и эффективности производства. В этом направлении особое внимание уделяется повышению конкурентоспособности хлопкового волокна на мировом рынке, разработке и модернизации современных, технологически надёжных и качественных производственных процессов.

В мире ведётся ряд научных исследований, направленных на совершенствование техники и технологии переработки хлопкового сырья. Особое внимание уделяется сохранению исходных качественных показателей волокна и семян. Приоритетными считаются исследования по снижению энергозатрат процессов, созданию компактных, простых, современных и автоматизированных конструкций оборудования. Наряду с этим актуальными задачами развития отрасли являются создание технологий, позволяющих управлять качеством продукции, а также улучшение её качества и снижение себестоимости путём ускоренного внедрения в производственный процесс передовой техники и технологий.

В республике реализуются масштабные мероприятия по проведению исследований, разработке и внедрению в производство новых техник и технологий, направленных на снижение энергозатрат, повышение производительности труда и сохранение исходных качественных показателей хлопка при подаче его из буртов, расположенных на хлопкоочистительных предприятиях, в технологический процесс переработки. Уже достигнуты определённые результаты. В «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы»<sup>3</sup> обозначены важные задачи по обеспечению устойчивости национальной экономики, продолжению промышленной политики, направленной на увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, и увеличению объёма промышленного производства в 1,4 раза. В реализации этих задач особое значение приобретает повышение эффективности процесса отделения волокна от семян за счёт совершенствования рабочих

---

<sup>1</sup>Cotton: WorldStatistics. <https://www.statista.com>: <http://www.ICAC.org>.

<sup>2</sup>Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

